(14). Меркулова М.Г. Ретроспекция в английской “новой драме” конца XIX – начало XX века: истоки и функционирование монография. Москва, “Прометей”, 2005, 184 с.

Raximova Umida Salievna (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent),
Mahmood Shaxlo Atabayevna (5-son maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi, tadqiqotchi;
E-mail: shaxlomahmood@gmail.com)

JANE AUSTENNING “PRIDE AND PREJUDICE” HAMDA O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARLARIDA AYOLLAR NUTQINING PRAGMATIK VA LINGVOMADANIY MODELI: QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Jane Austenning “Pride and Prejudice” hamda O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarlarida ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy modeli qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot nutq aktlari, xushmuomalalik strategiyalari, implikatura va bilvosita muloqotning ayol identifikatsiyasini shakllantirishdagi o‘rnini yoritadi. Tahlil natijalari ingliz va o‘zbek badiiy diskursida ayollar nutqi umumiy pragmatik tamoyillarga asoslangan bo‘lsa-da, uning kommunikativ xususiyatlari turli lingvomadaniy qadriyatlar bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Austen asarlarida individual mustaqillik va shaxsiy tanlov ustuvor bo‘lsa, Hoshimov ijodida onalik, oilaviy birdamlik va ma’naviy qadriyatlar yetakchi o‘rin egallaydi. Tadqiqot natijalari pragmatika, gender lingvistikasi va lingvomadaniyatshunoslik bo‘yicha ilmiy izlanishlarni boyitadi.*

Kalit so‘zlar: *pragmatika, lingvomadaniyat, ayollar nutqi, nutq aktlari, xushmuomalalik strategiyasi, implikatura, Jeyn Osten, O‘tkir Hoshimov, badiiy diskurs.*

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ЖЕНСКОЙ РЕЧИ В РОМАНЕ ДЖЕЙН ОСТИН «ГОРДОСТЬ И ПРЕДУБЕЖДЕНИЕ» И ПРОИЗВЕДЕНИИ УТКИРА ХАШИМОВА «ДЕЛА МИРА» (DUNYONING ISHLARI): СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В статье представлен сравнительный анализ прагматической и лингвокультурной модели женской речи в произведениях Джейн Остин “Pride and Prejudice” и Откира Хошимова “Dunyoning ishlari”. Исследование посвящено анализу речевых актов, стратегий вежливости, импликатур и косвенной коммуникации как средств формирования женской идентичности. Результаты показывают, что при общности прагматических механизмов английский и узбекский художественный дискурс отражают различные лингвокультурные ценности. В произведении Джейн Остин доминируют идеи личной независимости и индивидуального выбора, тогда как в произведении Откира Хошимова ведущими являются материнство, семейное единство и духовно-нравственные ценности. Полученные результаты могут быть использованы в исследованиях по прагматике, гендерной лингвистике и лингвокультурологии.*

Ключевые слова: *прагматика, женская речь, лингвокультурология, речевые акты, стратегии вежливости, импликатура, Джейн Остин, Откир Хошимов.*

A PRAGMATIC AND LINGUOCULTURAL MODEL OF WOMEN’S SPEECH IN JANE AUSTEN’S “PRIDE AND PREJUDICE” AND UTKIR HOSHIMOV’S “DUNYONING ISHLARI”: A COMPARATIVE ANALYSIS

Annotation. *This article presents a comparative analysis of the pragmatic and linguocultural model of women’s speech in Jane Austen’s “Pride and Prejudice” and Utkir Hoshimov’s “Dunyoning ishlari”. The study examines speech acts, politeness strategies, conversational implicatures, and indirect communication as pragmatic mechanisms constructing female identity in English and Uzbek literary discourse. The findings demonstrate that although both authors employ similar pragmatic devices, their communicative functions reflect different cultural values. Austen’s female characters emphasize individual autonomy and social equality, whereas Hoshimov’s female characters foreground motherhood, family solidarity, and moral responsibility. The study contributes to literary pragmatics, gender linguistics, and linguocultural studies by highlighting the interaction between language, culture, and female identity.*

Keywords: *Literary pragmatics, Women’s speech, Linguocultural studies, Speech acts, Politeness, Conversational implicature, Jane Austen, Utkir Hoshimov, Literary discourse.*

Kirish. So‘nggi yillarda pragmatika, lingvomadaniyatshunoslik va gender lingvistikasi tilshunoslikning eng faol rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylandi.[1] Ushbu fanlar til birliklarining nafaqat grammatik yoki semantik xususiyatlarini, balki ularning muloqot jarayonidagi kommunikativ vazifalari hamda madaniy mazmunini o‘rganishga xizmat qiladi.[2] Ayniqsa, badiiy matn pragmatik hodisalarni tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi, chunki personajlar nutqi orqali muallif nafaqat individual xarakterlarni, balki muayyan jamiyatning ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini ham ifodalaydi.[3]

Ayollar nutqining pragmatik xususiyatlarini o‘rganish gender lingvistikasi va adabiy pragmatikaning kesishgan nuqtasida shakllangan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biridir.[4] Zamonaviy tadqiqotlar ayollar va erkaklar nutqi o‘rtasidagi farqlarni biologik omillar bilan emas, balki ijtimoiy-madaniy muhit, kommunikativ vaziyat va diskursiv amaliyotlar bilan izohlaydi.[5] Shu sababli badiiy asarlarda ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish til, madaniyat va gender munosabatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Jeyn Osten va O‘tkir Hoshimov ingliz hamda o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari bo‘lib, ularning asarlarida ayol obrazlari dialoglar orqali yuksak badiiy mahorat bilan ochib beriladi. *“Pride and Prejudice”* romanida Elizabeth Bennet, Jane Bennet va boshqa ayol qahramonlar ijtimoiy mavqe, nikoh, shaxsiy tanlov va axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq murakkab kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etadi. *“Dunyoning ishlari”* qissasida esa ona obrazi orqali mehr-oqibat, oilaviy birdamlik, insonparvarlik va milliy tarbiya kabi qadriyatlar dialoglar vositasida ifodalanadi. Har ikki asarda ayollar nutqi personaj xarakterini ochuvchi vositagina emas, balki muayyan lingvomadaniy modelni shakllantiruvchi pragmatik mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi.[6]

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Jane Austen ijodi, asosan, stilistika, feministik adabiyotshunoslik va narratologiya nuqtayi nazaridan keng tadqiq etilgan. O‘tkir Hoshimov asarlari esa ko‘proq badiiy mahorat, milliy qadriyatlar va insonparvarlik g‘oyalari doirasida o‘rganilgan. Biroq mazkur ikki adib asarlarida ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini yagona qiyosiy model asosida tahlil qiluvchi tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Aynan ushbu ilmiy bo‘shliq mazkur maqolaning konseptual asosini tashkil etadi.

Adabiyotlar sharhi. Pragmatika til birliklarining kommunikativ vaziyatdagi qo‘llanishi va ma’nosini o‘rganuvchi tilshunoslik yo‘nalishi bo‘lib, bugungi kunda zamonaviy lingvistikaning eng muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Pragmatik tadqiqotlarning shakllanishi J.L.Austinning nutq aktlari nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, u tilni nafaqat axborot uzatish vositasi, balki muayyan ijtimoiy harakatni amalga oshiruvchi mexanizm sifatida talqin qiladi.[7] Keyinchalik, J.Searle (1969) nutq aktlarini reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ turlarga ajratib, ularning kommunikativ funksiyalarini tizimlashtirdi.[8] H.P.Grice (1975) esa Kooperatsiya prinsipi va implikatura nazariyasini ishlab chiqib, muloqotda aytilgan va nazarda tutilgan ma’no o‘rtasidagi munosabatni izohladi.[9] Brown va Levinson (1987) tomonidan taklif etilgan xushmuomalalik nazariyasi esa shaxsning ijtimoiy obro‘si (*face*) va uni saqlashga qaratilgan kommunikativ strategiyalarni tushuntirib berdi.[10] Mazkur nazariyalar badiiy dialoglarni prag-matik jihatdan tahlil qilishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Pragmatika so‘nggi yillarda lingvomadaniyatshunoslik va diskurs tahlili bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Levinson (1983), Thomas (1995), Mey (2001) va Chapman (2011) pragmatik hodisalarning

---

[1] Levinson S.C. *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983, p. 1–5; Thomas J. *Meaning in Interaction*. Longman, 1995, p. 56; Mey J.L. *Pragmatics*. Blackwell, 2001, p. 32; Chapman S. *Pragmatics*. Palgrave Macmillan, 2011, p. 18.

[2] Thomas J. *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. London, Longman, 1995, p. 2–8; madaniy qadriyatlarini ham ifodalaydi.

[3] Short M. *Exploring the Language of Poems, Plays and Prose*. London, Longman, 1996, p. 15.

[4] Holmes J. *An Introduction to Sociolinguistics*. 4th ed. London, Routledge, 2013, p. 286.

[5] Lakoff R. *Language and Woman's Place*. New York, Harper & Row, 1975, p. 45.

[6] Austen J. *Pride and Prejudice*. London, Penguin Classics, 2003; Hoshimov O‘. *Dunyoning ishlari*. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2019.

[7] Austin J.L. *How to Do Things with Words*. Oxford, Oxford University Press, 1962, p. 94.

[8] Searle J.R. *Speech Acts*. Cambridge: Cambridge University Press, 1969, p. 24.

[9] Grice H.P. "Logic and Conversation." In *Syntax and Semantics*. Vol. 3. Academic Press, 1975, p. 45.

[10] Brown P., Levinson S.C. *Politeness*. Cambridge University Press, 1987, p. 61.

kontekst, madaniy muhit va kommunikativ maqsad bilan bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydilar.[1] Zamonaviy tadqiqotlarda pragmatik strategiyalar universal hodisa sifatida emas, balki muayyan madaniyatning kommunikativ me’yorlari bilan shakllanuvchi tizim sifatida talqin qilinmoqda. Aynan shu yondashuv ingliz va o‘zbek badiiy diskursidagi ayollar nutqini qiyosiy o‘rganish uchun nazariy asos yaratadi.

Gender lingvistikasi ayollar va erkaklar nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Ushbu yo‘nalishning shakllanishida R.Lakoffning *“Language and Woman’s Place”* (1975) asari muhim o‘rin tutadi.[2] Lakoff ayollar nutqida muloyimlik, ehtiyotkorlik va hissiy ifodalarning ko‘proq uchrashini ta’kidlagan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlar ushbu xususiyatlarni biologik emas, balki ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qila boshladi. Holmes (2013) ayollar nutqining asosiy kommunikativ vazifalari hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash, muloqotdagi ijtimoiy uyg‘unlikni saqlash va suhbatdosh bilan yaqinlikni mustahkamlashdan iboratligini ko‘rsatadi.[3] Zamonaviy gender lingvistikasi esa ayol identifikatsiyasi muloqot jarayonida doimiy ravishda shakllanishini va pragmatik strategiyalar aynan shu jarayonning muhim tarkibiy qismi ekanligini e’tirof etadi.

Badiiy matn pragmatik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi, chunki personajlar nutqi orqali muallif kommunikativ xulq-atvorning turli modellarini yaratadi.[4] Short (1996), Toolan (2009), Bray (2018) va boshqa tadqiqotchilar adabiy dialoglarni pragmatik tahlil qilish personajlarning yashirin maqsadlari, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlarini aniqlash imkonini berishini qayd etadilar.[5] Jane Austen ijodi yuzasidan olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar uning dialoglarida kinoya, implikatura, xushmuomalalik strategiyalari va ijtimoiy identifikatsiyaning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi (Suryanovika & Julhijah, 2018; Suhandoko, 2024).[6] Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyati faqat ingliz adabiyoti doirasida olib borilgan bo‘lib, qiyosiy pragmatik tahlil masalasi yetarlicha yoritilmagan.

O‘zbek tilshunosligida pragmalingvistika va lingvomadaniyat masalalari Sh.Safarov (2008), N. Mahmudov (2013), A.Nurmonov (2012), Sh.Rahmatullayev (2006) kabi olimlarning ilmiy ishlari orqali rivojlantirilgan.[7] Ushbu tadqiqotlarda pragmatik ma’no, nutq madaniyati, milliy mentalitet va tilning madaniy funksiyalari keng yoritilgan. Xususan, Raximova (2022) zamonaviy ingliz adabiyotida onalik metaforalarining ayol identifikatsiyasini shakllantirishdagi o‘rnini Anne Enright hikoyalari misolida tahlil qiladi.[8] Ushbu yondashuv badiiy matnda ona obrazining lingvomadaniy talqinini yoritishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘tkir Hoshimov ijodi bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlarda esa yozuvchining badiiy mahorati, insonparvarlik g‘oyalari va milliy qadriyatlarni aks ettirish usullari tahlil qilingan.. Shunga qara-may, *“Dunyoning ishlari”* qissasidagi ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy modeli hamda uning ingliz badiiy diskursi bilan qiyosiy tahlili alohida tadqiqot obyekti sifatida deyarli o‘rganilmagan.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili pragmatika, gender lingvistikasi va adabiy pragmatika bo‘yicha mustahkam nazariy asos mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq Jane Austenning *“Pride and Prejudice”* hamda O‘tkir Hoshimovning *“Dunyoning ishlari”* asarlarida ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy modelini qiyosiy jihatdan o‘rganuvchi kompleks tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, ingliz va o‘zbek badiiy diskursida ayollar nutqining kommunikativ strategiyalarini yagona qiyosiy-pragmatik model asosida tahlil qiladi.

So‘nggi yillarda adabiy pragmatika va gender lingvistikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar badiiy matnni til, madaniyat va ijtimoiy identifikatsiyaning o‘zaro ta’siri nuqtayi nazaridan tahlil qilishga alohida e’tibor qaratmoqda. Xususan, Suhandoko (2024) Jane Austen asarlarining korpus stilistik tahlili orqali mu-

---

[1] Levinson S.C. *Pragmatics*. Cambridge University Press, 1983, p. 27; Thomas J. *Meaning in Interaction*. Longman, 1995, p. 56; Mey J.L. *Pragmatics*. Blackwell, 2001, p. 32; Chapman S. *Pragmatics*. Palgrave, 2011, p. 18.

[2] Lakoff R. *Language and Woman's Place*. 1975, p. 12.

[3] Holmes J. *An Introduction to Sociolinguistics*. P. 291.

[4] Short M. *Exploring the Language of Poems, Plays and Prose, p.* 61; Rakhimova U.S., Khallieva G.I. *The Depiction of Age in Enright's Short Stories. Journal of Positive School Psychology*, 2022.

[5] Toolan M. *Narrative*. Routledge, 2009, p. 74; Bray J. *The Language of Jane Austen*. Palgrave, 2018, p. 84; Rakhimova U.S., Khallieva G.I. *The Depiction of Age in Enright's Short Stories. Journal of Positive School Psychology*, 2022.

[6] Suryanovika C., Julhijah N. Directive Speech Acts... *Lingua Cultura*, 2018.

[7] Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008; Mahmudov N. *Til va madaniyat*. Toshkent, “Akademnashr”, 2013; Nurmonov A. *Tanlangan asarlar*. Toshkent, “Akademnashr”, 2012; Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. Toshkent, “Universitet”, 2006.

[8] Rakhimova U.S. The Role of Metaphors in the Description of Motherhood in Anne Enright's Short Stories // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*. 2022, vol. 12, № 4, p. 208–213.

allifning takrorlanuvchi til birliklari ayollarning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy kutishlarni ifodalashda muhim stilistik vosita ekanligini ko‘rsatadi.[1] Shuningdek, Jane Austenning *Emma* romaniga bag‘ishlangan zamonaviy gender-lingvistik tadqiqot ayol obrazlarini yaratishda leksik tanlov va stilistik vositalarning gender identifikatsiyasini shakllantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Pragmatika sohasidagi yangi tadqiqotlar esa klassik Austin–Searle modelini yanada rivojlantirib, nutq aktlari va implikaturani ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liq holda talqin etmoqda. Xususan, Babazade (2025) hamda Noor (2025) pragmatik ma’no hosil bo‘lishida kontekst, madaniy tajriba va kommunikativ maqsadning hal qiluvchi rol o‘ynashini qayd etadilar.[2] Ushbu zamonaviy yondashuvlar mazkur maqolada qo‘llanilgan qiyosiy-pragmatik tahlil metodologiyasini mustahkamlaydi hamda ingliz va o‘zbek badiiy diskursida ayollar nutqining lingvomadaniy modelini izohlash uchun nazariy asos yaratadi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili pragmatika, gender lingvistikasi va adabiy pragmatika bo‘yicha mustahkam nazariy asos mavjudligini ko‘rsatadi. **Biroq** Jeyn Ostenning *“Pride and Prejudice”* hamda O‘tkir Hoshimovning *“Dunyoning ishlari”* asarlarida ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy modelini qiyosiy jihatdan o‘rganuvchi kompleks tadqiqotlar yetarli emas. Mavjud ishlarda mazkur ikki adib ijodi, odatda, alohida o‘rganilgan bo‘lib, ularning ayol qahramonlari nutqini yagona pragmatik va lingvomadaniy model asosida qiyosiy tahlil qilish masalasi deyarli yoritilmagan. Mazkur tadqiqotning o‘ziga xosligi shundaki, unda pragmatika, gender lingvistikasi va lingvomadaniyatshunoslik yondashuvlari integratsiyalangan holda Jeyn Osten hamda O‘tkir Hoshimov asarlaridagi ayollar nutqining lingvomadaniy modeli ilk bor yagona qiyosiy tahlil doirasida yoritiladi.

Natijalar va muhokama. Ayollar nutqida nutq aktlarining pragmatik xususiyatlari. Nutq aktlari ayol qahramonlarning kommunikativ maqsadini va ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi asosiy pragmatik vo-sitalardan biridir. *Pride and Prejudice* romanida Elizabeth Bennet Mr. Darcyning turmush qurish taklifiga javoban shunday deydi: "I have never desired your good opinion".[3]

Mazkur dialog Elizabethning rad etish va baholash nutq aktlarini bir vaqtda amalga oshirayotganini ko‘rsatadi. Austin (1962) va Searle (1969) nazariyasiga ko‘ra, bu ekspressiv va direktiv nutq aktlarining uyg‘unlashgan ko‘rinishi bo‘lib, qahramonning mustaqil pozitsiyasini ifodalaydi.

“Dunyoning ishlari” qissasida esa ona obrazi farzandiga: "Yetimlarga rahm qilish kerak",[4] deya murojaat qiladi. Ushbu jumla grammatik jihatdan tavsiya bo‘lsa-da, pragmatik jihatdan tarbiyaviy direktiv vazifasini bajaradi. Demak, Osten asarlarida nutq aktlari individual tanlovni ifodalasa, Hoshimov asarlarida ular axloqiy qadriyatlarni shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. **Ayollar nutqida xushmuomalalik strategiyalarining pragmatik ifodasi.** Har ikki asarda xushmuomalalik strategiyalari muloqotdagi ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Lady Catherine bilan suhbatda Elizabeth Bennet shunday deydi:

"I am only resolved to act in that manner which will constitute my own happiness".[5] Mazkur javob salbiy xushmuomalalik strategiyasining namunasi bo‘lib, suhbatdoshga hurmat saqlangan holda shaxsiy tanlov himoya qilinadi.[6] Hoshimov qissasida esa ona farzandiga mehr bilan murojaat qiladi:

"Uyqu qatta, bolam? O‘tiribman".[7] Bu dialog tanbeh emas, balki g‘amxo‘rlik va yaqinlikni ifodalovchi ijobiy xushmuomalalik strategiyasidir. Natijada ingliz diskursida xushmuomalalik shaxsiy erkinlikni, o‘zbek diskursida esa oilaviy birdamlikni qo‘llab-quvvatlaydi. **Bilvosita muloqot va implikaturaning prag-matik talqini.** Bilvosita muloqot ayollar nutqining muhim pragmatik xususiyatlaridan biridir. Elizabeth Bennetning quyidagi fikri bunga misol bo‘ladi:

"You could not have made me the offer of your hand in any possible way that would have tempted me to accept it".[8] Mazkur jumlada rad etish bilan bir qatorda yashirin tanqid ham mavjud. Grice nazari-

---

[1] Suhandoko. *Existence, Expectation and Interference...* ADIA Proceedings, 2024.

[2] Babazade Y. *Speech Acts and Hidden Meaning*. 2025; Noor A. *Contemporary Approaches to Speech Acts and Implicatures*. 2025.

[3] Austen, J. (2003). *Pride and Prejudice*. Penguin Classics. (Original work published 1813), p. 237.

[4] Hoshimov O‘. (2019). *Dunyoning ishlari*. “Yangi asr avlodi”, p. 6.

[5] Austen J. (2003). *Pride and Prejudice*. Penguin Classics, p. 441.

[6] Brown P., Levinson S.C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge, Cambridge University Press, 1987, p. 61–68.

[7] Hoshimov, O‘. (2019). *Dunyoning ishlari*. ‘Yangi asr avlodi”, p. 6.

[8] Austen J. (2003). *Pride and Prejudice*. Penguin Classics, p. 241.

yasiga ko‘ra, bunday implikatura muloqotning pragmatik mazmunini kuchaytiradi.[1] *“Dunyoning ishlari”* qissasida esa ona quyidagi jumla orqali o‘z hissiyotini bilvosita ifodalaydi:

"Bilasan-ku, jon bolam, kamuyqu bo‘lib qolganman”.[2] Mazkur gapning yashirin ma’nosi onaning tashvishi va mehrini ifodalashdan iborat. Demak, ingliz badiiy diskursida implikatura tanqidiy mazmunni, o‘zbek badiiy diskursida esa hissiy yaqinlikni ifodalash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayollar nutqining lingvomadaniy modeli: ingliz va o‘zbek badiiy diskursi qiyosi. Qiyosiy tahlil natijalari ayollar nutqining pragmatik strategiyalari har ikki asarda umumiy kommunikativ tamoyillarga asoslanganligini ko‘rsatadi. *“Pride and Prejudice”* romanida ayollar nutqi individual mustaqillik va shaxsiy tanlovni ifodalasa, *“Dunyoning ishlari”* qissasida onalik, mehr-oqibat va oilaviy birdamlik asosiy lingvomadaniy qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Pragmatik strategiyalarning bunday farqlanishi ularning madaniy muhit bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, Jeyn Osten va O‘tkir Hoshimov ayol obrazlarini faol kommunikator sifatida tasvirlagan bo‘lsalar-da, ularning nutqi turli lingvomadaniy modellarga asoslangan holda shakllangan.

Xulosa. Mazkur tadqiqot Jeyn Ostenning *“Pride and Prejudice”* hamda O‘tkir Hoshimovning *“Dun-yoning ishlari”* asarlarida ayollar nutqining pragmatik va lingvomadaniy modelini qiyosiy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlandi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, har ikkala asarda ham ayol qahramonlar nutqi per-sonaj xarakterini ochish bilan birga, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va madaniy qadriyatlarni ifo-dalashning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida nutq aktlari, xushmuomalalik strategiyalari, bilvosita muloqot va implikatura ayollar nutqining asosiy pragmatik mexanizmlari ekanligi aniqlandi. *“Pride and Prejudice”* romanida ushbu strategiyalar ko‘proq shaxsiy mustaqillik, individual tanlov va ijtimoiy tenglikni ifodalashga xizmat qilsa, *“Dunyoning ishlari”* qissasida ular mehr-oqibat, oilaviy birdamlik va ma’naviy tarbiya kabi milliy qadriyat-larni aks ettiradi. Bu esa pragmatik strategiyalarning kommunikativ funksiyasi madaniy muhit va ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Jeyn Osten va O‘tkir Hoshimov asarlaridagi ayollar nutqining pragmatik hamda lingvomadaniy modelini yagona qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilganidadir. Pragmatika, gender lingvistikasi va lingvomadaniyatshunoslik nazariyalarini integratsiyalash orqali ingliz va o‘zbek badiiy diskursida ayollar nutqining umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi hamda ularning kommunikativ strategiyalari madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq holda izohlandi.

Mazkur tadqiqot natijalari pragmatika, adabiy diskurs tahlili, gender lingvistikasi va lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishlaridagi ilmiy izlanishlarni boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, ulardan oliy ta’lim muassasalarida pragmatika, diskurs tahlili va qiyosiy adabiyotshunoslik fanlarini o‘qitishda hamda ingliz va o‘zbek badiiy diskursini qiyosiy o‘rganishga oid keyingi tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Rakhimova U.S. (2022). The role of metaphors in the description of motherhood in Anne Enright’s short stories. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12*(4), p. 208–213.

(2). Austin J.L. (1962). *How to do things with words*. Oxford University Press.

(3). Austen J. (2003). *Pride and Prejudice*. Penguin Classics (Original work published 1813).

(4). Bray J. (2018). *The language of Jane Austen*. Palgrave Macmillan.

(5). Brown P., Levinson S.C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.

(6). Chapman S. (2011). *Pragmatics*. Palgrave Macmillan.

(7). Grice H.P. (1975). Logic and conversation. In P.Cole & J.L.Morgan (Eds.), *Syntax and semantics* (Vol. 3, p. 41–58), Academic Press.

(8). Holmes J. (2013). *An introduction to sociolinguistics* (4th ed.). Routledge.

(9). Hoshimov O‘. (2019). *Dunyoning ishlari*. “Yangi asr avlodi”.

(10). Hojiyev A. (2002). *O‘zbek tili leksikologiyasi va frazeologiyasi*. “O‘qituvchi”.

(11). Lakoff R. (1975). *Language and woman’s place*. Harper & Row.

(12). Leech G N. (1983). *Principles of pragmatics*. Longman.

(13). Levinson S.C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge University Press.

(14). Mahmudov N. (2013). *Til va madaniyat*. Akademnashr.

(15). Mey J.L. (2001). *Pragmatics: An introduction* (2nd ed.). Blackwell Publishing.

[1] Grice H.P. "Logic and Conversation." In: Cole P., Morgan J.L. (Eds.). *Syntax and Semantics*. Vol. 3. New York: Academic Press, 1975, p. 45–46.

[2] Hoshimov O‘. (2019). *Dunyoning ishlari*. “Yangi asr avlodi”, p. 9.

(16). Nurmonov A. (2012). *Tanlangan asarlar*. "Akademnashr".
(17). Rahmatullayev Sh. (2006). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. "Universitet".
(18). Rakhimova U.S., Khallieva G.I. (2022). The depiction of age in Enright's short stories. *Journal of Positive School Psychology*, p. 7198–7202.
(19). Raximova U.S., Masharipova N.I. (2024). Ayol xarakterini ifodalovchi paremalarning lingvokulturologik tasnifi. *Eurasian Journal of Academic Research, 4*(11–2), p. 54–59.
(20). Safarov Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
(21). Searle J.R. (1969). *Speech acts: An essay in the philosophy of language*. Cambridge University Press.
(22). Short M. (1996). *Exploring the language of poems, plays and prose*. Longman.
(23). Suhandoko. (2024). Existence, expectation, and interference: A corpus stylistics study of word clusters in Jane Austen's works. In *Proceedings of the Annual International Conference of the Association of Lecturers in Adab Sciences (ADIA 2024)*.
(24). Suryanovika C., Julhijah N. (2018). Directive speech acts and hedges presented by female main characters of Jane Austen's novels. *Lingua Cultura, 12*(4), p. 345–350.
(25). Thomas J. (1995). *Meaning in interaction: An introduction to pragmatics*. Longman.
(26). Toolan M. (2009). *Narrative: A critical linguistic introduction* (2nd ed.). Routledge.

Mamajonova Shoiraxon Murodjon qizi (Andijon davlat Chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi; E-mail:shoiraxonmamajonova7@gmail.com)

LEKSIK ZAXIRANI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI METODIK TASHKILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etish va uning shaxsga moslashuvchanligini ta'minlash masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Telekommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, ular orqali talabalarning xalqaro hamkorlik, axborot almashinuvi va mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, kompyuterli telekomunikatsiyalarning didaktik funksiyalari va ularning pedagogik vazifalarni hal etishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Raqamli ta'lim muhitida adaptiv va individuallashtirilgan yondashuvlarni qo'llash orqali talabalarning kognitiv xususiyatlari, bilim darajasi va o'qish sur'atiga mos ta'lim modellarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy platformalar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt texnologiyalarining afzalliklari hamda ular bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan. Shu bilan birga, kelgusida sun'iy intellekt, mashinali o'qitish, virtual va qo'shimcha reallik hamda mobil texnologiyalar asosida ta'limni yanada takomillashtirish istiqbollari belgilangan.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, adaptiv ta'lim, individuallashtirilgan o'qitish, telekommunikatsiya texnologiyalari, ta'limda hamkorlik, mustaqil ta'lim, didaktik funksiyalar, sun'iy intellekt, mashinali o'qitish, virtual reallik, qo'shimcha reallik, mobil ta'lim, ingliz tilini o'qitish, elektron ta'lim muhiti, ta'lim samaradorligi.*

МЕТОДИЧЕСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛЕКСИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ

Аннотация. *В данной статье с научной точки зрения анализируются вопросы организации образования на основе цифровых технологий в условиях глобализации и обеспечения его адаптивности к индивидуальным особенностям личности. Рассматривается роль телекоммуникационных технологий в образовательном процессе, а также возможности развития международного сотрудничества студентов, обмена информацией и самостоятельной учебной деятельности посредством их использования. Кроме того, обосновываются дидактические функции компьютерных телекоммуникаций и их значение в решении педагогических задач. Рассматриваются вопросы формирования в цифровой образовательной среде моделей обучения, соответствующих когнитивным особенностям студентов, уровню их знаний и темпу обучения, посредством применения адаптивного и индивидуализированного подходов. Анализируются преимущества современных платформ, мобильных приложений и технологий искусственного интеллекта в обучении английскому языку, а также проблемы, связанные с их использованием. Наряду с этим определяются перспективы дальнейшего совершенствования образовательного процесса на основе искусственного интеллекта, машинного обучения, виртуальной и дополненной реальности, а также мобильных технологий.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, адаптивное обучение, индивидуализированное обучение, телекоммуникационные технологии, сотрудничество в образовании, самостоятельное*